

**SO'Z TURKUMLARI VA ULARNING TASNIFI**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zga tilli guruhlarda rus tili RTU 21/2 guruh 2-bosqich talabalari

Xayrullayeva Madinabonu

Matnazarova Moxina

Fan: Hozirgi o'zbek adabiy tili

Fan o'qituvchisi: Komilova Gulmira Temirovna

Annotatsiya. Maqolada so'z turkumlarining daslabki o'rganish davri va uning rivojlanish bosqichlari, shuningdek o'zbek tilshunosligi, morfologiya va sintaksis bo'limlarining shakllanishiga oid tadqiqotlar tahlil qilngan. o'zbek tilida so'z turkumlari tasnifi masalalariga oid mavjud materiallar o'rganilib tegishli xulosava tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье проанализированы исследования начального периода изучения категорий слов и этапов их развития, а также формирования разделов узбекского языкознания, морфологии и синтаксиса. изучены имеющиеся материалы по вопросам классификации категорий слов в узбекском языке, сделаны соответствующие выводы и рекомендации.

Annotation. The article analyzed the daslabki study period of word categories and the stages of its development, as well as studies on the formation of Uzbek linguistics, morphology and syntax sections. existing materials on the issues of classification of word categories in the Uzbek language have been studied and given relevant conclusions and recommendations.

Kalit so'zlar: So'z turkumlari: morfologiya, sintaksis, tilshunoslik, grammatika.

KIRISH

Hozirgi o'zbek tilida 12 ta so'z turkumi mavjud bo'lib, ular yuqorida bayon qilingan 3 asosiy xususiyatga ega bo'lish darajasiga ko'ra, guruhlarga bo'linadi. O'zbek



tilshunosligida soʻzlarni turkumlarga ajratishda turli yondashuvlar mavjud, birinchi xil tasnifda soʻzlarni quyidagi 5 ta guruhga boʻlinadi:

1. Mustaqil soʻzlar;
2. Yordamchi soʻzlar;
3. Modal soʻzlar;
4. Undov soʻzlar;
5. Taqlid soʻzlar.

Ikkinchi xil tasnifda soʻzlar ifodalaydigan umumiy maʼnolarga koʻra boʻlinadi:

1. Nomlovchi soʻzlar: ot, sifat, son, feʼl va ravish.
2. Yordamchi soʻzlar: bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklama.
3. Ifodalovchi soʻzlar: undov, modal va taqlid soʻzlar.
4. Koʻrsatuvchi soʻzlar: olmosh.

Bizga maʼqul koʻringan tasnif quyidagi guruhlariga boʻlinadigan tanifdir:

- 1) Mustaqil soʻzlar: ot, sifat, son, feʼl, ravish va olmosh soʻz turkumlari.
- 2) Yordamchi soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklama soʻz turkumlari.
- 3) Alohida soʻzlar: modal, undov va taqlid soʻz turkumlari.

Yuqoridagi koʻpincha tasniflarda mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari koʻzga koʻrinmoqda. Bu tasnif anaʼnaviy tasnif hisoblansa-da, hozirgi kunda ham oʻz qimmatini yoʻqotmagan. Anʼanaviy tasnifda soʻz turkumlariga 6 ta soʻz turkumi kiritilib, ularda ot soʻz turkumi birlamchi va feʼl esa ikkilamchi qutbda qaror topmoqda, lekin ayrim tadqiqotlarda taqlid soʻzlar ham mustaqil soʻz turkumlariga kiritilib, feʼl soʻz turkumi oldinga oʻtkazilmoqda. Feʼl barcha soʻz turkumlari ichida eng katta, grammatik kategoriyalarga boy, mukammal soʻz turkumidir. Biroq maʼlumki, Inson dunyoga kelgach, avvalam bor narsa-buyumlarga duch keladi. Har qanday harakat ham predmet yoki shaxs tomonidan bajariladi. Shunga binoan, bizga maʼquli esa anʼanaviy tasnifdir.

Mustaqil soʻz turkumi leksik va grammatik maʼnoga ega boʻlib, gapning biror boʻlagi vazifasida kela olishi bilan shakl yasash xususiyatida ham egadir. Yordamchi soʻzlar esa leksik maʼno anglatmaydi, morfologik jihatdan ham oʻzgarmaydi, gap boʻlagi



vazifasida ham kela olmaydi va yasalish xususiyatiga ham ega emas. Modal, undov va taqlid soʻzlar esa mustaqil soʻzlarga ham, yordamchi soʻzlarga ham oʻxshamaydi, oʻzaro umumiy jihatlari ham yoʻq. Shuning uchun, alohida soʻz turkumlari deb ataladi.

Hozirgi oʻzbek tilshunosligida grammatik kategoriyalar oʻrganilish boʻyicha ham har xil fikrlar mavjud. Anʼanaviy tilshunoslikda har bir soʻz turkumining grammatik kategoriyalari oʻz doirasida oʻrganilib kelingan boʻlsa-da, keyingi paytlarda soʻz oʻzgartiruvchi vositalar – otlardagi kelishik va feʼllardagi shaxs-son qoʻshimchalari soʻzlarning sintaktik aloqasiga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllari deb nomlanib, soʻz turkumlaridan tashqarida oʻrganilmoqda. Bizningcha, har bir kategoriyaning oʻz soʻz turkumi doirasida berilishi maʼqul. Chunki har soʻz turkumining kategoriyasi oʻz soʻz turkumi doirasida oʻrganilmasligi soʻz turkumlarining xususiyatlarini bir butun holda tushunmasligiga va soʻz turkumlarini tahlil qilishda qiyinchilik hosil qilishga sabab boʻladi. Shuning uchun, grammatik kategoriyalarga shakl hosil qiluvchilar va soʻz oʻzgartiruvchilarga boʻlingan holda har kategoriyani oʻz doirasida oʻrganilishi maʼqul. 1976 yilda nashr etilgan “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobida tilshunoslikfanining bir qismi sifatida oʻrganilib, u tilning grammatik qurilishini tekshirishi aytib oʻtilgan. Chunki u soʻz va gapning har bir tildagi formal-grammatik tomonlarini- soʻzning shakl oʻzgarishlarini, soʻz qoʻshishning, soʻz birikmalarining turli koʻrinishlarini, vositalarini va gapning tuzilishini, tiplarini kabi muammolarni oʻrganadi. Lekin grammatika termini tilning grammatik qurilishi maʼnosida ham qoʻllanib, bu termin keyingi maʼnoda ishlatilganda, grammatika fanining tekshirish obʼektini ifoda qiladi. Til xususiyatlari uning fonetik, leksik va grammatik tuzilishida aks etib, hammasi bir butun sistemani hosil qiladi, demak, tilning grammatik qurilishi uning fonetik qurilishi bilan va leksik sistemasi bilan bogʻliqdir: tilning oʻzaro bogʻlangan boʻlaklarning yaxlitligidan iborat boʻlishi grammatikaning fonetika va leksikologiya bilan aloqada ekanligini tilimizdagi soʻzlar orqali anglanadi. Bundan kelib chiqadiki, tilning hamma tomonlari oʻzaro bogʻlangan, oʻzaro shartlangan boʻlib, grammatik qurilish til sistemasining bir qismi ekanligi sezilib turadi. Umuman olganda, grammatika soʻzlarni shakllantiradi, biriktiradi, ularning fikr anglatish vositasi sistemasidagi vazifasini namoyon qilib koʻrsatadi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, koʻpgina tillarning grammatik qurilishida



o‘xshashliklar borligini ko‘ramiz, lekin, ikkinchi tomondan, bir oilaga kiradigan tillarning orasida ham ma’lum farqlar mavjud. Bunda o‘xshashlik nisbatan sintaksisda seziladi, farqlanish, noo‘xshashlik esa so‘z shakllarida kuchli hisoblanadi

Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar tomonidan nashr etilgan. Hozirgi o‘zbek arabiy tili darsligida so‘z turkumlarni 12 turga bo‘lib mustaqil so‘zlarni - ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish; yordamchiso‘zlarni – ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama; bundan tashqari modal so‘zlar, undov va taqlid so‘zlar tarzida o‘rganganligini ko‘ramiz. Lekin o‘zbek tili grammatikasining praktikumi kitobida esa so‘z turkumlarni to‘rtta katta gruppaga, turkumga ajratgan:

1. Mustaqil so‘zlar – ot, sifat, son, olmosh, ravish.
2. Yordamchi so‘zlar – ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.
3. Undov va taqlid so‘zlar.
4. Modal so‘zlar.

A.Sodiqov, A.Abdualazizov, M.Irisqulovlarning 1981 yilda chop etilgan “Tilshunoslik kirish” darsligida so‘z turkumlarni boshqa tillar – ingliz, nemis va fransuz tillari bilan qiyoslagan holda o‘rganishga, mohiyatiga yanada chuqurroq e‘tibor berishga qaratilgan.

Bunda so‘z turkumlarni ajratishning uchta qonuniyati borligini ta’kidlaydi:

1. So‘z turkumlarining kategorial belgilari.
2. So‘zlarni turkumlarga ajratish prinsplari.
3. Turli tillar so‘z turkumlari.

Olimlar ham so‘zlarni turkumlarga ajratish uchun asos bo‘ladigan mezonlar, belgilar, asoslari 3 turga bo‘ldi:

1. Strukturalizmgacha bo‘lgan davr.
2. Strukturalizm davri.
3. Strukturalizmdan keyingi davr.

Tilshunoslikda strukturalizm oqimi paydo bo‘lgandan so‘ng 30- yillargacha so‘z turkumlarni uch asosiy belgisi orqali ajratgan:

1. So‘zlarning leksik manosi.
2. So‘zlarning morfologiya belgilari, yani so‘zning grammatik formasi.
3. So‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasi



XULOSA

Bir soʻz bilan aytganda jahon tilshunosligi taraqqiyotida til gramatikasi va morfologik xossalarini oʻrganish masalasi dolzarb boʻlib turibdi. Xususan oʻzbek tilining morfologik sathi va strukturasi oʻrganish masalasida ham koʻplab tadqiqotlar va izlanishlar hanuz davom etmoqda. Albatta asosiy qolib va tahliliy mexanizmlar sohaning salohiyatli olimlari tomonida yaratilgan. Ammo chuqur fundamental tadqiqotlarni olib borishning ehtiyoji hanuzgacha mavjud.

Soʻz turkumlari masalasi, butun dunyoda, jumladan, Oʻzbekistonda ham koʻplab tadqiqotlarda obʻekt qilib olingan boʻlsa-da, hammaga bir xil darajada manzur boʻladigan holatda oʻrganilmagan.

Soʻz turkumlari bilan bogʻliq material, maʼlumot lugʻatlardan olinmasligi kerak. Chunki ular lugʻatlarga qayta ishlanib kiritilgan boʻladi. Bizning ushbu ishimizda matndagi barcha soʻz va ularning turli grammatik qoidalari qulaylicha tahlil qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Муҳитдинов Х., Худойберганова Д., Умиров И. ва бошқа. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (Ўқув қўлланма), Т., Илм-зиё, 2004.
2. Ishonch Zikrulloh, Hozirgi oʻzbek tili, Kobul, Nigorxona matbaasi, 2014.
3. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Voqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi oʻzbekadabiy tili, Т., fan va texnologiya, 2010.
4. Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.
5. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Т., 2009.
6. Шоабдурахмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Фан, 1980.